

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi
Raising birinchi o‘rinbosari M.Mirzaevning faoliyat kursatkichlari bo‘yicha
ma‘lumot

Budjet daromadlari ijrosini ta‘minlash va qo‘shimcha manbalarni jalb etish

2022-yilning yanvar oyi uchun belgilangan 10,8 trln.so‘m prognoz ko‘rsatkichi 11,3 trln.so‘mga (105,1%) bajarilib, budjetga 550 mlrd.so‘m qo‘shimcha mablag‘lar jalb etildi (tushumlar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 trln.so‘mga (124,5%) o‘sdi).

Yanvar oyi tushumi quyidagi manbalar hisobidan ta‘minlandi:

- hisoblangan soliqlarni undirish hisobidan 10 trln.so‘m (88,5%);
- yil boshidagi mavjud soliq qarzini undirish hisobidan 502,1 mlrd.so‘m (4,4%);
- soliq nazorati tadbirlari hisobidan 272,8 mlrd.so‘m (2,5%);
- soliq bazasi oshirish va yashirin ish o‘rinlarini legallashtirish (xufyona iqtisodiyotni qisqartirish) hisobidan 400,8 mlrd.so‘m (3,6%);
- yangi loyihalar va qo‘shimcha soliq obyektlarini hisobga olish hisobidan 112,5 mlrd.so‘m (1%) budjetga tushirildi.

Joriy yilning yanvar oyida budjetga qo‘shimcha mablag‘larni tushirish nazorat raqamlari haqiqatda 0,6 trln.so‘mga yoki 0,1 trln.so‘m ortig‘i bilan bajarildi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga
tushumlarni ta‘minlash bo‘yicha

Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘yicha 2022-yil yanvar oyi uchun belgilangan **2,1 trln.so‘m** prognoz 2,4 trln.so‘mga yoki 114,7 foizga bajarildi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘yicha qo‘shimcha mablahlar fuyidagi viloyatlar tomonidan bajarildi.

Strategik rejalashtirish bo‘yicha

Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarda soliq ma‘murchiligi va soliq organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori loyihasi bilan “2022-2026 yillarda soliq ma‘murchiligi va davlat soliq xizmati organlarini rivojlantirish Strategiyasi hamda uni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlanmoqda.

Vazirlar Mahkamasining “Mahsulotlar (tovar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogini joriy etish va tovar-moddiy boyliklarni olish uchun ishonchnomalarni elektron rasmiylashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 28-apreldagi 249-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Davlat soliq qo‘mitasi mutaxassislardan iborat tuzilgan holda, mahsulotlar (tovar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogi muntazam ravishda yangilanib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi “Majburiy raqamli markirovkalanishi lozim bo‘lgan mahsulotlar ro‘yxatini kengaytirish bo‘yicha tajriba loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 322-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida “Asl belgisi” Milliy axborot tizimida 6 ta dori vositalari va tibbiy buyumlarni, 5 ta suv va salqin ichimliklarni 5 ta maishiy texnika ishlab chiqaruvchi korxonalar ro‘yxatdan o‘tkazilib mahsulotlar katalogi moduliga sinov tariqasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar yuzasidan tegishli ma‘lumotlar (116 ta dori darmon, 33 ta suv va salqin ichimlik, 762 ta maishiy texnika) joylashtirilishi ta‘minlandi.

Soliq nizolarini sudgacha hal qilish bo‘yicha

2022-yilning yanvar oyida jami 28 ta 8 371,5 mln. so‘mlik soliq nizosiga oid shikoyatlar kelib tushgan bo‘lib, ularning barchasini belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishi ta‘minlangan.

Xususan, bugungi kun holatida kelib tushgan shikoyatlar soliq to‘lovchi vakillari bilan hamkorlikda ko‘rib chiqilib, 5 ta (8%) 649,8 mln. so‘mlik murojaatda soliq to‘lovchining pozitsiyasi qanoatlantirilgan.

Shuningdek, 23 ta (92%) 7 721,7 mln. so‘mlik murojaat bo‘yicha davlat soliq xizmati organlari qarorlari o‘z kuchida qoldirildi va bu haqda belgilangan tartibda tushuntirishlar berildi.

Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha qismiga

Joriy yilning yanvar oyida Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha inspeksiyada ro‘yxatga olingan 946 ta korxonalarining soliq ma‘murchiligi natijadorligini ta‘minlash borasida bir qator tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan, 2022-yildan soliq qonunchiligiga kiritilgan o‘zgartishlar, O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risidagi qonun mazmun-mohiyati bo‘yicha 170 ta yirik soliq to‘lovchilar bilan 4 marta seminar o‘tkazildi, televidenie, radio va matbuotda 6 marta chiqishlar tashkil etildi.

Joriy yilning 1-choragi uchun 21,7 trln.so‘m, jumladan, yanvar oyi uchun 7,0 trln.so‘m prognoz belgilangan bo‘lib, ushbu prognoz 7,1 trln.so‘mga yoki 101 foizga bajarilishi ta‘minlandi.

Shuningdek, QQS bo‘yicha 1-chorak uchun 4,2 trln.so‘m, jumladan, yanvar oyiga 1,3 trln.so‘m prognoz belgilangan bo‘lib, 1,2 trln.so‘mga yoki 95 foizga bajarilishi ta‘minlandi. Yanvar oyida QQS tushumi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 158 mlrd.so‘mga oshgan.

Yirik soliq to‘lovchilarning joylashgan joyiga bormasdan, ya‘ni, ular faoliyatiga aralashmasdan xavfni tahlil qilish asosida soliq nazorati tadbirlari amalga oshirish tizimi 2022-yilda ham davom ettirilib, natijada yanvar oyida budjetga jami 208 mlrd.so‘m qo‘shimcha soliqlar hisoblandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-sentabrdagi 595-son qaroriga asosan soliq xavfi yuqori bo‘lgan tashkilotlar bo‘yicha tizimli ish tashkil etildi.

Xavfni tahlil qilish asosida yanvar oyida 61 ta kameral, 13 ta sayyor va 1 ta soliq auditi (jinoiyat ishi bo‘yicha) tadbirlari o‘tkazildi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra mazkur kameral soliq tekshiruvlarida 103,3 mlrd.so‘m qo‘shimcha soliqlar hisoblendi.

DSQning “Tahlika-tahlil” dasturiga kiritish uchun EHF va onlayn NKM bilan bog‘liq bo‘lgan xavfni tahlil qilish va baholash mezonlari taklif sifatida ishlab chiqildi.

“Avtokameral” dasturida 319 ta yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha aniqlangan tafovutlarni ko‘rib chiqish ishlari tashkil etildi.

QQS zanjiri uzilishini (tax.gap) hisoblash formulasi tatbiq etilmaydigan korxonalar ro‘yxatiga kiritish uchun 25 ta yirik soliq to‘lovchilar nomzodi shakllantirib, asoslantirilgan holda qo‘mita Raisiga kiritildi va rozilik olindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi 489-son qarori bilan belgilangan tartibda QQS manfiy summalarini qoplash bo‘yicha zarur tadbirlar tashkil etilib, yanvar oyida jami 0,8 trln.so‘m ortiqcha to‘lov kamaytirildi.

Subyektlar hisobotlari hamda bank va bojxona tomonidan taqdim qilingan ma’lumotlarni o‘zaro solishtirish va tahlil qilish orqali budjetga 193 mlrd.so‘m qo‘shimcha mablag‘ undirildi.

Soliq kodeksining 103-105-moddalariga asosan yanvar oyida yirik soliq to‘lovchilarning ortiqcha to‘lovlari hisobidan soliq qarzlarini qoplash uchun 23,5 mlrd.so‘mga va hisob raqamiga qaytarish uchun 107,7 mlrd.so‘mga tegishli xulosalar tayyorlanib, ijroga qaratildi.

Soliq kodeksiga asosan soliq qarzi hisobiga korxonalar mol-mulkini xatlash, ta’qiq qo‘yish, valyuta hisob raqamiga taqdimnoma yuborish, MIB bilan hamkorlikdagi amaliy tadbirlar orqali 186 mlrd.so‘m soliq qarzi undirildi.

Tashqi savdo operatsiyalari doirasida tuzilgan shartnomalar bo‘yicha da’vo muddati o‘tgan kreditor qarzdorliklarga yo‘l qo‘ygan 282 ta subyektlarga jami 1 489,2 ming AQSh dollari miqdoridagi kreditorlik qarzdorliklarini daromadiga olish bo‘yicha xabarnomalar yuborildi.

2022-yil 1-fevral holatiga